BUGUNGI KUNDA PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARNING AHAMIYATI VA ULARNI TARIX DARSLARIDA QO'LLANILISHI

Sherzod Ibroim o'g'li Ibroimov
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda ishlab chikarish texnologiyalari tezlik bilan rivojlanayotgan bir davrda ta'lim soxasi ham boshqa ishlab chiqarish muassasalari kabi ilmiy, asoslangan yangi pedagogik texnologiyalar, informatsion ma'lumotlarni qo'llagan holda malakali mutaxassislar faoliyat yuritadigan raqobatbardosh, ilmli, bilimli kishilarni Vatan ravnaqi uchun tayyorlab beradigan soxa sifatida rivojlanib bormoqda.

Kalit so`zlar: pedagogika, texnologiya, rivojlanish, informatsiya

THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES TODAY AND THEIR APPLICATION IN HISTORY LESSONS

Sherzod Ibroim ugli Ibroimov
Chirchik State Pedagogical Institute of Tashkent region

ABSTRACT

At a time of rapid development of production technologies, the education sector, like other industrial institutions, uses competitive, scientifically based pedagogical technologies and information to train competitive, knowledgeable and educated people for the development of the Motherland. developing as an industry.

Keywords: pedagogy, technology, development, information

KIRISH

Bugungi tez o'zgaruvchan iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayot o'quvchi yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda yangi pedagogik interfaol metodlardan keng foydalanishni taqozo qiladi, An'anaviy mashg`ulotlar olib borish asta sekin o'z o'rnini intensiv va interfaol metodlarga, noan'anaviy dars o'tish shakllariga bo'shatib bermoqda. Ta'lim - tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, avvalo, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirishni talab etadi. Chunki uni amalga oshirmay turib qo'llangan har qanday texnologiya kutilgan samarani bermaydi.

Ta'lim-tarbiya jarayonining doimiy ravishda optimallashib borishi dars berish jarayonida qo'llanilayotgan yangi va takomillashib borayotgan pedagogik texnologiyalarning turli yo'nalish va maqsadlarda qullanilayotganligiga bog'liq.

Har bir pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadi pirovard natijaga erishish yo'llarini bandma-band aniqlash va unga suzsiz erishishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi - bu o'qituvchi va o'quvchi-o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga xamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalarga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va uo'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchi-o'quvchilar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa chiqara olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baxo bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya - bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi-o'quvchining extiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan. oldindan loyixalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Shunday ekan har bir pedagog o`z darslarini o`tishdan oldin o`z oldiga maqsad qo`yib olmog`I lozim. Zero bu kelajak avlod vatanimiz rivojiga hissa qo`shadigan barkamol bo`lib yetishmog`I lozim. Har bir fan o`qituvchisi oldidagi burch bu barkamol avlodni bilimliy qilb tarbiyalash darslarni mazmunli tashkil etish. Tarix darslarida ham bunday pedagokik texnalogiyalarning o`rni beqiyos. 45 daqiqada mavzuni har bir o`quvchidan so`rash imkoni yo`q, bunda biz turli metodlardan foydalanishimiz mumkin o`quvchini mavzuni qay darajada tushunganliklarini biz bilib olishimiz mumkin. Buning uchun biz mavzuni, o`quvchini yoshini inobatga olib darsimizda bu pedagagik texnalogiyani yoki metodlarni ta`nlashimiz mumkin. Tarix darslarida o`quvchidan ko`proq tarixiy shaxslar nomlari ,sanalar, va tarixiy atamalarni yodda saqlash talab etiladi har bir mavzuda bularga alohida e`tibor berishimiz kerak.

NATIJALAR

Ta'lim texnologiyalari tavsifi

"B.B.B" texnalogiyasi

(bilaman, bilmoqchiman, bilib oldim)

Amur Temur Saltanatining ma`muriy harbiy tuzilishi mavzusini B.B.B texnalogiyasi dan foydalanib yoritish. O`quvchilar guruhlarga bo`linadi. O`qituvchi

o`quvchilardan Amir Temur haqida nima bilasizlar deb suriydi o`quvchilar javoblarini bilaman ustuniga yozib chiqadi.

Ikkinchi ustunga A. Temur haqida nimalarni bilishni hohlashini yozib chiqadi.

Uchinchi ustunga o`quvchilar nimalarni bilib olganliklarini yozib chiqadilar.

Bilaman	Bilishni hohlayman	Bilib oldim
1 g A Temur 1336 yil 9-aprelda tavallud topgan	A Temur davlatni qanday boshqargan?	Boshqaruv ikki idoradan iborat bo`lgan dargoh va vazirlik
2g 1365 yil Loy jangi bo`lgan	A Temur davlatini kimlarga bo`lib bergan?	U o`z yerlarini yaqinlariga suyurg`ol qilgan
3 g A Temur Temur tuzuklarini yozgan	A Temurning harbiy san`ati qanday bo`lgan?	A Temur qo`shini 10 talik askariy birikmalar asosida tuzilgan
4g 1370- yil A Temur Movaraunnahrda markazlashgan davlat tuzgan	Temur tuzuklari qanday kitob?	Temur tuzuklari tarixiy huquqiy kitob

MUHOKAMA

“Toifali jadval” texnologiyasi

Ushbu metod boshqa metodlardan ancha sodda va o`quvchilar darsda qo`llashlari qulay bo`lgan metod. Bu metod berilayotgan savol, mavzu muammosi yoki tarixiy shaxslar, atamalar, xronologik ma`lumotlarni o`zida mujassam eta olishi va o`quvchini mustaqil fikr yuritishiga hamda muqobil fikr va javoblarni tanlashga xizmat qiladi. Uning o`quvchi uchun qulayligi ham aynan shunda.

“Chingizxon bosqini” mavzusida toifali jadval texnalogiyasidan foydalanib yoritish.

Mo`gullar davlati	Xronologik toifa	Qaysi davlatga mansub	Kelib chiqishi
Chingizxon	1206 yil	Mo`g`ul davlati	Qiyot urug`i
Jo`ji	1219 yil	Sig`noq	Chingizxon urug`I
Chig`atoy	XIII asrning 20 – yillari	Movarounnahr, Sharqiy Turkiston	Chingizxon urug`I

O`qtoy	1227 yil	Qoraqurum	Chingizxon urug`i

“Rezyume texnalogiyasi”

Bu texnologiya murakkab, ko`p tarmoqli bo`lib, mavzuning turli tarmoqlari bo`yicha axborot beriladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi. O`quvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlash, jamoa bo`lib ishlashga, fikrlarni jamlab taqqoslashga, o`z fikrini mustaqil bayon qilishga, o`tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini qo`llay olishga o`rgatadi. Ushbu texnologiyani seminar, amaliy darslarda, yakka tartibda yoki kichik guruhlarda, shuningdek, uyga vazifa berishda ham qo`llash mumkin.

“Old Osiyo davlatlari va ularning qo’shnilari” mavzusida toifali jadval “rezyume” texnalogiyasidan foydalanib yoritish.

Ossuriya		Xet va Mitanni		Urartu	
Yutuqlari	Muammolari	Yutuqlari	Muammolari	Yutuqlari	Muammolari
Mil.avv XX davlat tashkil topdi. Mil.avv. XIII asrda yuksak darajada rivoj topdi	Jangovor xalq bo’lgan qo’shni mamlakatlarga doimiy urush qilgan.	Mil.avv. XVIII asrda tashkil topgan. Poytaxti Xattussa.	Suriya shaharlarini bosib olgan. Bobilni talon taroj qilgan.	Kavkaz ortida joylashgan. Sardur I va minuya hukmronligi davrida gullab yashnadi	Bosqinchilik yurishlarini amalga oshirdi. Mil.avv 590 yilda tarix sahnasidan ketdi.
Xulosa					

XULOSA

Maqolada ko’rsatilgan texnologiyalar maktablarda tarix darslarida ishlatiladigan texnologiyalar bo’lib, o’quvchilarda qadimgi dunyo tarixi va o’rta asrlar O’zbekiston va Jahon tarixini o’rganishda asosiy ko’makchi vazifasini o’taydi. Bu kabi texnologiyalar fanning boshqa mavzularida ham qo’llanilishi tavsiya etiladi.

REFERENCES

1. Sh.M.Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoev. — Toshkent: „O‘zbekiston“, 2017. — 48 b.
2. 2Sh.M.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan. /Sh.M.Mirziyoev. — Toshkent: : „O‘zbekiston“, 2017. — 488 b.[
3. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf. 2000. - 80 b.
4. М. Иброимов, Ш., Болтаев, М., & Сатторова Мактаб ўқувчилари онгида рекреация тушунчасини шакллантириш. (2020) Academic research in educational sciences, (3), (146-151)
5. Ражабов, Ф. Т. (2014). Фермерские хозяйства Узбекистана: развитие и региональные особенности. Позиционирование России и её регионов в современном мире: общественногеографический анализ и прогноз/под ред. АГ Дружинина. Санкт-Петербург, ЦУП, 152-157.
6. Иброимов, Ш. И. Ў., & Болтаев, М. Ж. (2020). Ўзбекистон тоғ-водийларининг экотуристик имкониятлари ва улардан фойдаланиш. Academic research in educational sciences, (1).
7. Ibroimov, S., & Madaminova, M. (2020). Maktablarda geografiya fanini o ‘qitish samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarni qo ‘llash. Academic research in educational sciences, (1).
8. Karimovich, RA (2020). Talabalarning tabiiy va ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish (Evolyutsiya doktrinasi O mavzusini o'qitish misolida). Xalqaro psixologik reabilitatsiya jurnali , 24 (2).
9. Ражабов, Ф. Т. (2015). Региональные особенности развития сельского хозяйства Республики Узбекистан (на примере Кашкадарьинской области). Социально-экономическая география: Вестник Ассоциации российских географов-обществоведов (АРГО), (1), 195.
10. Shernayev Akbar (2020/1/30) Abstracts of V International Scientific and Practical Conference Osaka, Japan 29-31 January 2020,189-193.
11. М. А. Иброимов, Ш. И., Бўрибеков, М. Ф., & Сатторова Ёш авлодга экологик туризмнинг мазмун-моҳиятини етказиш. (2020) Academic research in educational sciences, (3), (275-279)